

## QALB QUYOSHINING SOHIBLARI YOHUD KO'ZI OJIZ DAHOLAR

**Shokirova Surayyo Zokirxon Qizi**  
*ATMU Defektologiya yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada ko'zi ojiz daxolar haqida ma'lumot beriladi. Tiflopedagogika pedagogika, ko'zi ojiz, mashaqqatli mehnat kuchli iste'dod, ko'zi ojiz daxolar.*

**Kalit so'zlar:** *Ko'zi ojiz, maxsus maktab, ta'lim jarayoni, psixik va jismoniy nuqsonlar, jahon adabiyoti, zulmatdan yorug'lik sari intilish, chechak kasalligi qorong'u kamera, mo'jizaviy fonar.*

"Tiflos" so'zi grek tilidan olingan bo'lib, "ko'r" yoki "ko'zi ojiz" degan manoni anglatadi. Demak, Tiflopedagogika "ko'zi ojiz bolani yetaklayman" degan manoni anglatadi.

Tiflopedagogika fani Yevropa davlatlarida, xususan Fransiyada XVII asrda rivojlanadi. Bu fanning asoschisi fransuz pedagogi U. Gayui bo'lib, u Parij shahrida 1784 - yilda ko'zi ojizlar uchun maxsus maktab tashkil qiladi. Unga qadar ko'zi ojizlar og'zaki va o'zgalarning ko'magi asosida o'qiganlar. Bunday usulda o'qish ko'zi ojizlarning mashaqqatli mehnat, nihoyatda kuchli iste'dod va xotira sohibi bo'lishlikni talab qilgan. Shunday iste'dod egalari bo'lgan ko'zi ojiz daxolar borki, Gomer, Axmad Yugnakiy, T. Bleklok, Betxoven, N. Sanderson, Lui Brayl kabilar yaratib qoldirgan ilmiy va adabiy merosidan bugungi kunda nafaqat ilm ahli, balki butun insoniyat bahramand bo'lmoqda.

Ko'zi ojizlar uchun maxsus maktab dastlab Fransiya, so'ngra Germaniya, Avstriya, Angliya, Amerika kabi davlatlarida faoliyat boshlagan. Rossiyada ko'zi ojizlar uchun moslashtirilgan maktab Petersburg shahrida 1807-yili tashkil qilingan bo'lsa, O'zbekistonda esa 1922-yili Toshkent shahrida tashkil etildi.

Tiflopedagogikaning eng asosiy vazifasi ko'zi ojiz bolalardagi to'laqonli bo'lmagan ko'rish funksiyalardan unumli foydalanish, ta'lim jarayonida ularning rivojlantirish va ko'rish darajasining pasayib ketishining oldini olish uchun shart-sharoitlar yaratib berish, psixik va jismoniy nuqsonlarning oldini olish uchun maxsus yo'naltirish sog'likni tiklashga asoslangan pedagogik ishlarni olib borishdan iborat.

Gomer (mil.av. VIII asr)

Gomer antik davr adabiyotining eng yirik namoyondalardan biri bo'lib, u o'z davrida juda mashhur shoir bo'lgan. Bazi malumotlarga ko'ra, Muze, Evmali, Tamir, Olen kabi shoirlar yashab o'tganligi haqida fikr mulohazalar mavjud. Lekin jahon adabiyoti ommasiga Gomerninggina ijod namunalar yetib kelganligi uchun uni nafaqat yunon adabiyotining eng 1-shoiri deyish mumkin. Gomer qadimgi yunon epopeyalari "Iliada", "Odiseya" ning muallifi sifatida jahon kitobxonlarga tanish.

Malumki Gomerining ko'zi ojiz bo'lganligi haqida turli fikr va qarashlar mavjud. Gomer so'zining manosi ham ularning ko'zi ojizligiga ishora bo'lib xizmat qilgan bo'lishi ehtimol. Tadqiqotchilarning fikricha "Gomer" grekcha "ojiz" yoki "garovga olingan manolarni anglatadi.

Gomer "Iliada" va "Odisseya" kabi mashhur dostonlardan tashqari "Oykaliyaning olinishi", "Margit hazil qo'shiqlari", "Sichqonlar va qurbaqalar jangi dostoni va bir qancha gimnlar, epigrammalar, epitalamiyalarning ham ijodidir.

Gomer antik davr adabiyotining eng yirik namoyondalardan biri bo'lib uning ko'zi ojiz bo'lganligi haqiqatga yaqin. Ko'zi ojiz insonning qalb ko'zi bilan yozilgan ushbu nodir durdonalari yana necha-necha asrlar davomida o'zidan yog'du taratib turishi shubhasiz.

Nikolas Sanderson (1682-1739)

Bashariyat erishgan bilimlarning hech bir soxasi bo'lmasa kerakki unda ko'zi ojiz insonlar o'zlarini ko'rsatmagan bo'lsalar. Ularning ko'plari xorij universitetlarda mustaqil ravishda eng yuksak akademik darajalarga erisha oladilar. Ko'rishningdan mosuvo insonning hayotda uchraydigan to'siqlarga qaramay zulmatdan yorug'lik sari intilish biror boshlovchisiz qunt va zehni ilmning xatto cho'qqisiga erishishi tafakkurga ulkan zavq bag'ishlaydi. Shunday insonlardan biri Nikolas Sandersondir.

Bu buyuk inson Tarlston Yokshir shahrida 1682-yilda dunyoga keldi. U bir yoshligida chechak kasalligi tufayli nafaqat ko'rishdan balki ko'z olmasidan ham maxrum bo'ldi. Yoshligidayoq qobiliyati namyon etgan Sandersonning Pennistondagi bepul o'qitiladigan maktabga berdilar. Ular bu yerda yunon va lotin tillari bo'yicha tayanch malumotga ega bo'lib muntoz olimlar ishlarni o'rganadi. Shuningdek Yevklid, Armed va Doifantlarning izlanishlarini asl grekchada o'qib bilimlarni yanada oshadi.

Otasi yosh Nikolasning qobiliyati arifmetikaning umumiy qoidalarni o'rganishga yo'naltirdi. U tez orada umumiy masalalar bo'yicha ishlay oladigan, juda uzun hisob-kitoblarni yoddan qiynalmay amalga oshiradigan o'zi uchun yechimni osonlashtiruvchi yangi formulalar o'ylab topadigan ilmga ega bo'ldi. Sandersonga 1-ustoz sifatida matematikadan ta'lim bergan bu 2 inson kitoblar bilan taminlar ularni o'qib, tushuntirib berar edilar. Ammo Nikolas tezda o'z ustozlardan o'zib ketib uzlardan saboq olishga emas, balki dars berishga loyiqroq bo'lib qolardi.

Sandersonning yaqin do'sti doktor Reyd uning ilmiy merosi to'g'risida gapirib shunday deydi. "Yorug'likni ko'rmay turib, u har qanday fanni o'rganishi va bilishi shuning bilan birga, falsafaning har qaysi sohasida kashfiyotlar qilishi mumkin edi. U har qanday odam bilishi mumkin bo'lgan intellektdan tashqari ko'p narsani yoki nafaqat oraliqlar va osmoniy jismlarni balki yorug'lik tabiati va nurlarni aks etishi hamda sinishi qonuniyayini ayniqsa kamalak xodisani qanday qonubiyatlar asosida yuzaga kelishini prizma qorong'u kamera, mo'jizaviy fonar va mikroskop hamda teleskoplarni ham tushuna olardi. Bularning bari tajribada tasdiqlangan faktidir".

Lui Brayl (1809-1852)

1809-yilning 4-yanvarda Fransiyaning Ko'pvr shahrida etikdo'z usta Ludovik oilasida bir og'il farzand dunyoga keldi. Unga ota -onasi Lui deb ism qo'yishdi. Bola oldiniga nimjon bo'lib keyinchalik tengdoshlaridek yaxshi rivojlanadi. Lui Braylning onasi va opalari ertadan kechga qadar ishlaganlari sababli jajji Lui otasining ustaxonasiga tashlab ketar edilar. Lui Brayl otasining baquvvat qo'llarga xayrat bilan tikilar va ish qurollari bilan o'ynar edi. 1812-yilda Lui Brayl hayotida mudhish voqea yuz berdi. U otasining ustaxonasida o'tkir bigiz yoki picoq bilan o'zining o'ng ko'ziga og'ir jarohat yetkazadi. O'sha davr tabobati unchalik rivojlabmaganligi yoki jarohatlangan ko'zni iflos latta bilan bog'langanligi sababli uning ikki ko'zi ham qisqa vaqt ichida ko'rmay qoladil. Luining otasi 3yoshli o'g'lini qarovsiz qoldirganligi oqlibatida jajji farzandi zulmat olamiga mahkum bo'lganligidan o'zini aybdor xis qilib, hech qachon o'zini -o'zi kechirolmasligini ta'kidlaydi.

Lui Braylga 10 yoshiga qadar otasining do'sti og'zaki hisobni tahtaga o'yib yozilgan ommaviy harfni o'rgatadi. U 10 yoshiga kirganda otasi Parijga ko'zi ojizlar maktabi borligi haqida xabar topadi va 1819-yilda o'g'lini u yerga o'qishga olib boradi. Lui barcha fanlarni oson o'zlashtiradi, butun maktab kutubxonasini :grek ,lotin, ingliz, italyan, ispan tillari grammatikasi bo'yicha qo'llanmalari turli badiiy asarlarni o'qib chiqqan. Lui Brayl bo'rtma xaritada oson olar, ustaxonada ko'p hunarlar sirini o'rganar ,skripka vidonchal va organda juda yaxshi chalar edi.

Bugun deyarli har bir ko'zi ojiz inson o'qishni biladi va bu uchun ular Yana bir shunday taqdir egasi Lui Brayldan minbatdor bo'lishlari lozim .

Braylda harbiylar qorong'uda foydalanuvchi yozuv tizimini o'zi kabilar o'qishi uchun qo'llash fikri tug'iladi va shuning uchun ish boshlaydi. 20 yoshli Lui 6 nuqtali kodga asoslangan ,bugungi kunda butun dunyoda foydalaniladigan alifboni yaratishga muvaffaq bo'ladi.

Bu yozuv nafaqat yozuv balki ilmiy rasmlarni ham ifodalash imkonini beradi .1834-yilda Brayl o'z ixtirosini Parij san'at ko'rgazmasida namoyish qiladi va keyingi 20 yil ichidayoq bu alifbo butun dunyoga tarqalib ulguradi. Bugungi kunda ham bu yozuv butun dunyoda ko'zi ojizlarning rasmiy yozuvi hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sunnatilla Danganov "Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati" Toshkent -2010
2. F.U.Xusniddinova "Tiflopedagogikaning umumiy masalalari" Toshkent -2023
3. V.S. Rahmonova. Maxsus pedagogika -T.: G'afur G'ulom 2005.